

Uzbekistan Airways yoshlar uchun ekskursiya tashkil etdi

2022 10 Avgust

Mamlakatimizda O'zbekiston kelajagi bo'lmish yoshlarga har tomonlama e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarni kelajakka maqsad bilan intilishi uchun ularga motivatsiya berish qaysi soha vakili bo'lishiga yaxshi va xolis yordam beradi. Shu maqsadda «Uzbekistan Airways» AJ yoshlarni aviatsiya sohasi bilan tanishtirish uchun ekskursiya tashkillashtirdi.

Joriy yilning 8-avgust kuni Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda ekskursiya tashkil qildi. Ularga aviakompaniyaning transformatsiya jarayoni, undagi so'nggi o'zgarishlar, rejalashtirilayotgan yangi loyihalar haqida ma'lumot berildi. Yoshlar Boeing 787 Dreamliner havo kemasi bilan tanishdi. Shuningdek, «orzu kemasi» sahnida uchuvchi Akmal Hakimjonov va bortkuzatuvchi Farangiz Ismonova kelgan yosh mehmonlarga o'zlarining kasbi, ish jarayoni, bu sohaga qanday kirib kelganligi haqida so'zlab berishdi. Bundan tashqari, tashrif buyurganlar havo kemasi sahnida uchuvchining kabinasiga kirib kema komandiri bo'lish qanday ekanligini his qilib ko'rishdi.